

GIDROENERGETIKA SOHASIGA OID ATAMALARING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

**Feruza AZIMOVA,
“O’zbekgidroenergetika” jurnali Bosh muharriri,
Mustaqil tadqiqotchi**

Til taraqqiyotida atamalar ijtimoiy aspekt sifatida alohida o‘rin tutadi. Tarixiy rivojidan ayonki, terminologiya tilshunoslikning asosiy bo‘g‘ini sifatida doimo o‘sishi va o‘zgarishi, yangilanib turishi bilan til fanlarining hamda sohalar tilini o‘rganishning asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda.

Shu boisdan ham, so‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish borasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda atamashunoslikni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratildi. Xususan, “2020 – 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da tilimiz lug‘at tarkibining boyish manbalaridan bo‘lgan sohaviy atamalarni o‘rganish va tizimlashtirish, yangi o‘zlashayotgan terminlarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish bo‘yicha ham maxsus vazifalar belgilab berildi.

Shularga asosan, mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirish borasida olib borilayotgan amaliy harakatlar doirasida Atamalar komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shunga ko‘ra, soha terminlari tizimini takomillashtirish, tartibga solish, o‘zlashgan atamalarning o‘zbekcha muqobillarini shakllantirish, terminologiya bo‘yicha lingvistik va leksikografik tadqiqotlar olib borish ishlari yanada aniq va manzilli amalga oshirilishi belgilandi. Zamonaviy o‘zbek atamashunosligida atama yasash va tanlash metodlari, ularning samarasi, qabul qilinayotgan atamalarning adabiy til me’yorlariga mos kelishi va faol qo‘llanishi, atamalarning sohaviy qatlamlari yuzasidan yangi shakl va mazmundagi tadqiqotlar ustida izlanishlar olib borish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi.

Zamonaviy tilshunoslikning o‘rganilishi kerak bo‘lgan jihatlari sifatida ijtimoiy iqtisodiyotning bir bo‘lagi hisoblangan, o‘zining muqim tadqiqot obyekti va predmetiga ega bo‘lgan gidroenergetika sohasi terminologiyasi ham kishilar ongidagi gidroenergetik tushunchalar, bilimlar va gidroenergetika sohasida ishlatiladigan alohida lug‘aviy qatlam sifatida tilda o‘z o‘rni va nufuzini topdi. Har bir milliy tilda gidroenergetikaga aloqador terminlarning xazinasi yuzaga keldi.

Shularga muvofiq, gidroenergetika sohasiga tegishli atamalarning lingvistik, leksikografik va semasiologik xususiyatlarini tadqiq etish, o‘z va o‘zlashgan qatlamlari, yasalish usullari va mavzuiy guruhlarini aniqlash, adabiy til va boshqa nutq uslublarida qo‘llanishining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, o‘zlashmalarning muqobillarini yaratish zamonaviy o‘zbek tili taraqqiyotini ta’minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tahlillar ko'rsatadiki, bugungi kunda gidroenergetikada qo'llanib kelinayotgan atamalarning asosiy qismini *o'zlashma so'zlar* tashkil etadi. Buni biz mazkur tushunchaning o'zidanoq aniq bilib olamiz: "gidro" – yunonchadan rus tili orqali o'zlashgan so'z bo'lib, "suv" degan mazmunni anglatadi, qo'shma so'zning tarkibiy qismi sifatida suv yoki suv havzasiga oid tushunchalarni ifodalaydi. "Energetika" so'zi ham asli yunon tiliga mansub bo'lib, rus tili orqali qirib kelgan: fan, texnika, sanoat va umuman xalq xo'jaligining turli ko'rinishdagi energiya ishlab chiqarish, uzatish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan sohasini ifodalaydi. Ushbu ikki so'z birikuvidan "*gidroenergo*" so'zi hosil qilingan, ya'ni "*suv energiyasi*".

Gidroenergetika xalq xo'jaligining zamonaviy rivojlanayotgan, ishlab chiqarish ehtiyoji yuqori, shuningdek, xalqaro hamkorliklar uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan sohasi. Shu nuqtai nazardan, bu tizimda faoliyat taqozosiga ko'ra, o'zlashma, xususan, rus tili va rus tili orqali kirib kelgan so'zlar nisbatan faol qo'llanadi: *gidrogenerator*, *gidrodinamika*, *gidrograf*, *gidroinshoot*, *gidrometrik*, *gidromexanika*, *gidromodul*, *gidrotexnika*, *gidrotrubina*, *elektromontyor*, *elektroskop*, *elektrotexnik*, *energetik*, *energosistema* kabilar.

Gidroenergetika tizimida suv zaxiralaridan oqilona foydalanish orqali elektr energiyasi olinishini e'tiborga olsak, ushbu soha atamalari "*suv*", "*energetika*", "*elektr*", "*qurilish*", "*mexanika*" tushunchalari bilan bog'liq so'zlar asosiga shakllanganligi oydinlashadi. Jamiyat hayotiga gidroenergetik tushuncha va hodisalar, narsa-buyumlar, qurilmalar va inshootlarning kirib kelishi bilan o'zbek tili lug'at tarkibida ham o'sish va o'zgarishlar sodir bo'lib borayotganligi, ushbu so'zlar hisobiga til boyligi kengayganligini ko'rishimiz mumkin.

Gidroenergetik atamalar tizimida gidro va energetika mavzuiy sistemasi markaziy o'rinni egallaydi va quyidagi ichki guruhlardan tashkil topadi:

- 1) *suv va suv xo'jaligi bilan bog'liq tushunchalarni ifoda etuvchi atamalar;*
- 2) *elektr-energiya bilan bog'liq tushunchalarni ifoda etuvchi atamalar;*
- 3) *gidroenergetik qurilish materiallarini ifoda etuvchi atamalar;*
- 4) *gidroinshootlar va gidroqurilmalarni ifodalovchi atamalar;*
- 5) *suv va energiyadan foydalanish hamda ta'mirlash jarayonlarini ifoda etuvchi atamalar;*

6) *soha mutaxassisliklari va faoliyat jarayonlari bilan bog'liq atamalar.*

Bu atamalarni ham o'z navbatida yana bir necha ichki guruhlarga ajratish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, gidroenergetika atamalari murakkab tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lib, ushbu jihatni bilan til tizimining boshqa birliklaridan farqlanib turadi. Bu sohada biz, xususan, *sodda* (*kaskad*, *suv*, *daryo*, *nov*, *zovur*, *to'g'on*), *qo'shma* (*gidroloyiha*, *gidroinshoot*, *elektrstansiya*, *gidrograf*, *gidroqurilma*), *birikma* (*suv ombori*, *suv resurslari*, *drenaj moduli*, *tik zovur*, *kapital qurilish*), *qisqartma* (*GES (gidroelektrstansiya)*, *UK (unitar korxona)*, *AJ (asiyadorlik jamiyat)*), *MCHJ* (*mas'uliyati cheklangan jamiyat*)) shaklidagi atamalarni ham uchratamiz.

Ko'rindaniki, o'zbek tilining gidroenergetik terminologiyasi o'z lingvistik ko'rsatkichlariga ega mikrotizim sifatida til sistemasida alohida o'rinn tutadi. Bu esa gidroenergetika sohasida qo'llanilayotgan barcha atamalarni "*suv energiyasi*"ga xos

birlashtiruvchi sxemasi asosida “O'zbek tili gidroenergetika terminlari” mavzuiy guruhi doirasida tizimlashtirish, izohli lug‘atlarini shakllantirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamiz gidroenergetikasining markaziy tashkiloti hisoblangan “O'zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatida ham 2023-yildan Atamalar komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu Komissiya tomonidan sohada faol qo'llanilayotgan termin va tushunchalar jamlanib, **“Gidroenergetika sohasiga oid atamalarning izohli lug‘ati”** nashr etildi hamda tizim tashkilotlariga, soha qiziquvchilariga yetkazildi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi axborot asri, global jarayonlarda gidroenergetika sohasida ham tezkor yangilanish va o'zgarishlar sodir bo'lib bormoqda, xalqaro aloqalar kengaymoqda. Bu o'z navbatida, o'zbek tili lug‘at tarkibiga, umuman tilshunoslikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatishi, tabiiy. Soha atamalarini tadqiq etishda keng aholi qatlampiga **“qayta tiklanuvchi energiya manbalari”**, **“gidroenergetika”**, **“yashil energetika”** turkumidagi so‘z va tushunchalarni yetkazish, bu boradagi yangilik-ma'lumotlarni oson o'zlashtirishlariga ko'maklashishni ham nazarda tutish lozim. Chunki, gidroenergetika aholining ijtimoiy-maishiy turmushi bilan chambarchas bog'liq, kunlik energiya iste'moliga aloqador harakatchan soha.

Shu boisdan ham, gidroenergetika sohaviy atamalarini sotsiolingvistik tadqiq etish, o'zbek, rus va ingлиз tilidagi yaxlit izohli lug‘atini yaratish, o'zlashmalarning o'zbekona muqobillarini shakllantirish “O'zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatni Atamalar komissiyasining navbatdagi muhim vazifalari sifatida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF- 6084-son Farmoni. // <https://lex.uz/docs/5058351>.

2. Elektr energetika atamalari va ta'riflarining ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha lug‘ati. – T.: “Nihol” nashriyoti, 2013.

O'zbek tilining izohli lug‘ati. Tuzatilgan 2- nashri. A. Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildli //1-5 jildlar. – T.: “O'ME” Davlat ilmiy nashri. 2020.